

**BMTNING FOND VA DASTURLARI HAMDA ULARNING INSON
HUQUQLARINI TA'MINLASHDAGI O'RNI**

Mamashova Ruxshona Musurmon qizi¹

¹ Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoiy odil sudlov
fakulteti 3-kurs talabasi

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 03.07.2025

Revised: 04.07.2025

Accepted: 05.07.2025

KALIT SO'ZLAR:

BMT, inson huquqlari, UNDP, UNICEF, WHO, UNESCO, gender tengligi, bolalar huquqlari, xalqaro huquq, sud amaliyoti

Ushbu maqolada Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) inson huquqlarini ta'minlashdagi o'rni, uning doirasidagi asosiy fond va dasturlarning mazmun-mohiyati, shuningdek, ularning amaliy natijalari tahlil qilinadi. Xususan, UNDP, UNICEF, WHO va UNESCO kabi tuzilmalar faoliyati misolida ta'lim, sog'liqni saqlash, gender tengligi va bolalar huquqlarini himoya qilishdagi yutuqlar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada xalqaro sud amaliyotlari, xususan, Miranda v. Arizona ishi orqali inson huquqlari himoyasining mustahkamlanishiga urg'u beriladi. Xulosa qismida dolzARB muammolar tahlil qilinib, ularni bartaraf etish bo'yicha aniq tavsiyalar berilgan.

KIRISH. Birlashgan Millatlatlar Tashkiloti inson huquqlarini himoya qiluvchi va inson huquqlarini targ'ib etuvchi eng yirik xalqaro tashkilotlar qatorida o'z faoliyati amalga oshiradi. BMT inson huquqlarining universal himoyachisi sifatida turli davlatlar va mintaqalarda siyosiy, ijtimoiy va madaniy adolatlatni ta'minlashga qaratilgan keng qamrovli bir qancha dasturlarni amalga oshiradi. Demak, BMT 1945-yil 24-oktabrda ikkinchi jahon urushidan keyin tashkil topgan bo'lib, insoniyat tarixida bo'lgan eng katta urushlar tufayli qanchadan-qancha insonlarning bevaqt hayotdan ko'z yumishi, insonlarning huquqlari va erki uchun kurashish, ayollar va erkaklarning teng huquqligini, barcha millat va elatlarning teng huquqliligi, davlatlarda demokratiya va gumanizm g'oyalarini targ'ib etish, barchaning

teng huquqligini ta'minlash maqsadida ushbu tashkilot tashkilot tashkil qilingan. Bizga ma'lumki, qadimgi tariximizda insonlar o'z huquqlarini qanday tarzda himoya qilish chorasi ham bilishmagan hattoki erkaklarga nisbatan hokimiyatlarni ayollar deyarli boshqarishmagan. Bu eng katta fojialardan biri deb bemalol aytishimiz mumkin. Ya'ni inson o'z fikrlari erkin ifodalab berisha olmagan va agarda davlatlar o'rtasida qandaydir ziddiyatlar vujudga kelganida insonlarga xuddi buyumni ayirboshlagandek qullikka mahkum qilib sotib yuborishgani bu achinarli holatlar hisoblanadi. Bundan noto'g'ri xatti-harakatlarga chek qo'yish maqsadida, insonlarning huquqlari hamma huquqlardan ustunligini hisobga olishgan holatda ushbu tashkilot tashkil qilingan. BMTning asosiy maqsadi xalqaro davlatlar va elatlarning tinchlik va xavfsizlikini ta'minlash, davlatlar o'rtasida do'stona munosabatlarni rivojlantirish, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish hamda iqtisodiy va ijtimoiy hamkorlikni mustahkamlashdan iborat hisoblanadi. BMT ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun **Xavfsizlik Kengashi, Bosh Assambleya, Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash, Xalqaro Sud va Kotibiyat** kabi tuzilmalarga ega. Shuningdek, tashkilot o'z maqsadlarini amalga oshirishda maxsus agentliklar, fondlar va dasturlar bilan hamkorlikda ishlaydi. BMTga a'zo davlatlar ushbu tashkilot tomonidan amalga oshirilgan turli dasturlar, fondlar va xalqaro hamkorlik natijasida iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy rivojlanishga erishdi. BMT tomonidan ilgari surilgan barqaror rivojlanish maqsadlari, inson huquqlari himoyasi, gumanitar yordam va xalqaro tinchlikni saqlash tashabbuslari davlatlarning taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. BMTga a'zo bo'lish davlatlar uchun xalqaro huquqiy normalarga rioya qilish, demokratik boshqaruv tizimlarini mustahkamlash va inson huquqlarini himoya qilish majburiyatini yuklaydi. Bizga ma'lumki BMTga a'zo davlatlar xalqaro huquqiy tizimga integratsiyalashgan holda, tashkilot tomonidan qabul qilingan konvensiyalar va rezolyutsiyalarni ratifikatsiya va implementatsiya qilish orqali o'z davlatlariga kiritishi mumkin. Masalan, O'zbekiston 1992-yil 2-martda BMTga a'zo bo'lgan va xalqaro huquqiy normalarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish borasida sezilarli islohotlarni amalga oshirgan. Xususan, O'zbekiston **Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasini, Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktni** hamda **Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt** kabi muhim xalqaro huquqiy hujjalarga qo'shilgan. Bu hujjalalar inson huquqlarining ta'minlanishi bo'yicha davlatning xalqaro majburiyatlarini belgilaydi. Bundan tashqari, O'zbekistonda so'nggi yillarda demokratik islohotlar rivojlanib, **sud-huquq islohotlari, saylov tizimidagi o'zgarishlar, fuqarolik jamiyatining faollashuvi** kabi sohalarda ijobiy harakatlarni ko'rishimiz mumkin. BMTga a'zo bo'lgan barcha

davlatlarda ta’lim, sog’liqni saqlash va gender tengligini yaxshilash bo'yicha muhim loyihalar amalga oshirilib kelinyapti. Xususan, **Markaziy Osiyo davlatlari** (Qozog‘iston, O‘zbekiston, Qирг‘изистон va boshqalar) BMT yordamida ta’lim, ekologiya va sog’liqni saqlash tizimi kundan-kunga rivojlanib bormoqda. **Skandinaviya davlatlarida esa** (Shvetsiya, Norvegiya, Daniya) BMTning ijtimoiyadolat va inson huquqlari bo‘yicha ilg‘or tamoyillarini tatbiq etib, eng yuqori hayot sifati ko‘rsatkichlariga erishgan. Misol uchun Shvetsiya davlatini oladigan bo’lsak, fuqarolar uchun bepul yoki arzon tibbiy xizmatlari ta’milanganligi yoki Norvegiyada dunyodagi eng yaxshi ijtimoiy ta’minot tizimi joriy etilgan. Inson huquqlarni ta’minlash borasidagi BMTning asosiy yondashuvi global standartlarni shakllantirish, huquqiy monitoringlarni shakllantirish, davlatlarga umummajburiy harakterdagi tavsiyalar berishdan iboratdir. Shu jumladan, BMT tarkibidagi maxsus fond va dasturlar inson huquqlarini himoya qilish va targ’ib qilishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining fond va dasturlari hamda ularning inson huquqlarini ta’minlashdagi o’rni bir necha asosiy omillar bilan bog’liq hisoblanadi. BMT nafaqat inson huquqlari bo‘yicha xalqaro standartlarni ishlab chiqadi, balki ularning bajarilishini ham nazorat qiladi. Masalan, BMTning Inson huquqlari bo‘yicha Oliy komissariati (OHCHR) inson huquqlari buzilishlarini hujjatlashtirib, davlatlarning ushbu me’yorlarga rioya qilishini nazorat qiladi.¹⁸ Bundan tashqari, BMTning inson huquqlari bo‘yicha shartnomaviy qo‘mitalari davlatlarning xalqaro majburiyatlarni bajarish darajasini baholab boradi. BMT fondlari inson huquqlariga oid islohotlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida turli davlatlarga moliyaviy yordam va texnik ko‘mak ajratadi. BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP – United Nations Development Programme) BMTning eng yirik rivojlanish agentligi bo‘lib, davlatlarga iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional taraqqiyotni qo‘llab-quvvatlash orqali barqaror rivojlanish maqsadlariga (SDG) erishishda yordam beradi. Ushbu dastur 1965-yilda tashkil etilgan bo‘lib, dunyoning 170 dan ortiq mamlakatida faoliyat yuritadi. UNDPning asosiy yo‘nalishlari davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish, korrupsiyaga qarshi kurashish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish va huquqiy islohotlarni amalga oshirish, kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash, bandlikni oshirish va kambag‘allik darajasini kamaytirish, ayollar va kam ta’milangan guruhlar huquqlarini himoya qilish, gender zo‘ravonligiga qarshi kurash va ijtimoiyadolatni mustahkamlash kabilar asosiy yo‘nalishlari va faoliyati hisoblanad. BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP) inson huquqlari

¹⁸ United nations human rights office of the high commissioner

himoyasiga xizmat qiluvchi muhim islohotlarni amalga oshirish uchun mamlakatlarga yordam beradi. UNDP demokratik boshqaruv, korrupsiyaga qarshi kurash, gender tengligini mustahkamlash va ijtimoiy adolatni ta'minlash kabi sohalarda davlatlarga texnik va moliyaviy ko'mak berib kelmoqda. Masalan, rivojlanayotgan mamlakatlarda sud-huquq tizimlarini mustahkamlash, korrupsiyaga qarshi qonunchilikni ishlab chiqish va inson huquqlari bo'yicha milliy instittlarni tashkil etish UNDPning asosiy yo'nalishlaridandir. O'zbekistonda ham UNDP tomonidan huquqiy islohotlarni rivojlantirish, sud tizimini mustahkamlash va ayollar huquqlarini targ'ib qilishga qaratilgan loyihibor amalga oshirilmoqda.

BMT inson huquqlari bo'yicha xabardorlikni oshirish va fuqarolik jamiyatining ishtirokini kengaytirish maqsadida ta'lif va targ'ibot dasturlarini amalga oshiradi. Masalan, UNICEF bolalar huquqlari bo'yicha ta'lif dasturlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi, WHO esa sog'lijni saqlash huquqiga oid xabardorlikni oshirishga qaratilgan kampaniyalarni yo'lga qo'yadi. O'zbekistonda UNICEF tomonidan amalga oshirilgan dasturlar bolalar huquqlari bo'yicha huquqiy xabardorlikni oshirishga qaratilgan. UNICEF o'z faoliyatini BMT doirasida, lekin mustaqil tashkilot sifatida olib boradi. U davlatlar, xususiy donorlar va boshqa xalqaro tashkilotlardan moliyaviy mablag' oladi. Bu mablag'lar bevosita bolalarning huquqlarini himoya qilish, ta'lif, sog'lijni saqlash dasturlariga yo'naltiriladi. UNICEF BMT Bosh assemblyasi tomonidan tashkil etilgan va unga bevosita hisobotlarni beradigan fond hisoblanadi. Uning faoliyati xalqaro huquqiy normalarga asoslanadi ya'ni "**Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya**" UNICEF ishining asosiy huquqiy poydevori bo'lib xizmat qiladi. Masalan, UNICEF 1946-yilda tashkil etilgan bo'lib, uning asosiy maqsadi bolalar huquqlarini himoya qilish, ularning ta'lif va sog'lijni saqlash huquqlarini ta'minlash hamda ijtimoiy himoyani yaxshilashdan iborat. UNICEF dunyo bo'ylab bolalarning sog'lom rivojlanishini ta'minlash uchun turli loyihibor va dasturlarni amalga oshiradi. UNICEF mamlakatda "Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya"ni targ'ib qilish, maktab va bog'chalarda huquqiy ta'lifni rivojlantirish, shuningdek, bolalar mehnati va zo'ravonligiga qarshi kurash bo'yicha maxsus dasturlarni amalga oshirilmoqda. Bu orqali kelajak avlodning huquqiy savodxonligi oshirilishi va jamiyatda inson huquqlari madaniyatini shakllantirishga hissa qo'shilmoqda. Xususan ko'pgina horijiy mamlakatlarda bolalar ombudsmani faoliyati rivojlanib borishi va maxsus qonunlar bilan tartibga solina boshlangan. Masalan, 2000-yil 6-yanvarda Polshada "Bola huquqlari bo'yicha ombudsman to'g'risida", 2000-yilda Irlandiyada, 2000-yil 6-martda Fransiyada "Bola himoyachisi to'g'risida", Shvetsiyada 1993-yil 1-iyuldan, 2000-yil 25-

mayda “Bola huquqlarini himoya qilish nazorati to’g’risida”gi qonunlar ishlab chiqilgan. Xususan, mamlakatimizda ham 1992-yil 9-dekabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1989-yil 20-noyabrda qabul qilingan “Bolalar huquqlari to’g’risidagi” konvensiyaning ratifikatsiya qilinishi bolalarning huquqiy va ijtimoiy maqomini shakllantirish yo’lida muhim qadamlarda biri bo’lganini aytishimiz mumkin.¹⁹ Bola huquqlari bo‘yicha qabul qilingan xalqaro hujjatlar, xususan, **Bola huquqlari to‘g’risidagi Konvensiya (1989)** va uning fakultativ protokollari, bolalarning ta’lim olish, sog‘liqni saqlash, zo‘ravonlikdan himoyalanish va rivojlanish huquqlarini kafolatlashga qaratilgan. Ushbu huquqiy me’yorlar bolalarga nisbatan diskriminatsiyani kamaytirish, majburiy mehnat va ekspluatatsiyaga qarshi kurashish, bolalar salomatligi va ta’lim sifatini yaxshilash kabi masalalarda muhim rol o‘ynamoqda. BMTning UNESCO, UNICEF va Jahon banki kabi tashkilotlari tomonidan olib borilgan ta’lim dasturlari natijasida savodsizlik darajasi sezilarli darajada kamaydi. Xususan, qiz bolalarning maktabga borish ko‘rsatkichi 70% dan 89% gacha oshdi. Bu xalqaro moliyaviy yordam, gender tengligini rag‘batlantirish va ta’lim infratuzilmasini rivojlantrish natijasida erishilgan yutuqdir.

Biroq, hali ham 258 million bola boshlang‘ich va o‘rtalim ta’lim olish imkoniyatidan mahrum. Buning asosiy sabablari qashshoqlik, qurolli mojarolar, ijtimoiy va madaniy cheklovlar hamda maktab infratuzilmasining yetishmovchiligi bilan bog‘liq. Bunday muammolarni bartaraf etish maqsadida maktablarning sonini va eng muhimi sifatini ko‘paytirish, davlatlarni bepul boshlang‘ich ta’lim tizimini yo‘lga qo‘yishini targ‘ib qilish, malakali o‘qituvchilar sonini oshirish va o‘quv rejalarini orqali zamonaviy ta’lim tizimini rivojlantrish orqali bolalarning sifatlari ta’lim olishlarini ta’minlashimiz mumkin. Eng quvonarli holatlardan biri bu 2000-yildan buyon qizlarning maktabga boorish ko‘rsatkichi oshib borishi va bu islohotlar uchun qilinayotgan UNICEFning faoliyatining samaradorligining bir mahsuli deyishimiz mumkin. Ushbu fond tomonidan gender tengligini targ‘ib qilish bo‘yicha ko‘plab davlatlar ta’lim sohasida gender tafovutlarini kamaytirishga yo‘naltirilgan qonunlarni qabul qilinishi, jahon banki va UNICEF kabi tashkilotlar tomonidan ajratilgan grant va kreditlar orqali rivojlanayotgan mamlakatlarda qizlarning ta’lim olishini rag‘batlantirish kabi izchil harakatlarni amalga oshirmoqda. Shuni ham aytishimiz joiz, garchi ta’lim sohasi bo‘yicha katta yutuqlarga erishilgan bo‘lsa-da, hali bajarilishi lozim bo‘lgan ishlar ko‘p. 258 million bola ta’limdan chetda qolyapti, bu esa uzoq muddatli iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Bu masalar bo‘yicha

¹⁹ Bolalar ombudsmani matbuot xizmati

bir qancha tavsiyalar berib o'tmoqchiman, ya'ni ta'lim olish imkoniyatlarini yanada kengaytirish uchun davlatlar va xalqaro tashkilotlar hamkorligini kuchaytirish kerakligi, moddiy ta'minoti yetarlicha bo'limgan oilalarga ta'lim grantlari va yordam dasturlarini yo'liga qo'yish kabi qo'shimcha choralarini ko'rish lozim. Bugungi kunga kelib ba'zi bir mamlakatlarda xususan bizning ham davlatimizda bu bo'yicha allaqachon harakatlar amalgalashirib hattoki bu bo'yicha bir qancha imtizozlar ham mavjud.

Jahon Sog'lijni Saqlash Tashkiloti (World Health Organization) Birlashgan Millatlar Tashkilotining ixtisoslashgan agentliklaridan biri bo'lib, 1948-yil 7-aprelda tashkil etilgan. Uning asosiy maqsadi insonlarning sog'liqlariga bog'liq bo'lgan huquqlarini ta'minlash, yuqumli kasallikkarga qarshi kurashish, global sog'liq siyosatini shakllantirish hamda sog'lijni saqlash tizimini rivojlantirishdan iborat. WHOning asosiy vazifalari epidemiya va pandemiyalarni nazorat qilish va ularni oldini olish, jahon miqyosida aholini sog'lig'ini saqlash uchun kurashish, ushbu tashkilotga a'zo davlatlarga tibbiy yordam va texnik ko'maklashish, global miqyosda vaksinalar ishlab chiqarish va taqsimlash va eng asosiysi individlarning sog'lig'ini maksimal darajada himoya qilishdan iborat. WHO insonlarning sog'liq huquqlari xalqaro huquqiy normalarga asoslangan holda ta'minlanishini nazorat qiladi. Masalan, **1978-yil 12-sentabrdagi Alma-Ata deklaratasiyasi** va **2008-yilgi UHC (Universal Health Coverage) harakati** WHONing sog'lijni saqlashni inson huquqi sifatida belgilash yo'lidagi muhim hujjatlaridir. Ushbu hujjatlarda asosan barcha tibbiyot xodimlari va jahon hamjamiyatini barcha odamlar salomatligini himoya qilish va mustahkamlash uchun zarur bo'lgan chora tadbirlarni ko'rish talab qilinadi. Bu hujjatlar tibbiy yordam muhim ekanligini ta'kidlovchi birinchu hujjatlar hisoblanadi. Ushbu tashkilotga a'zo bo'lgan mamlakatlar tomonidan "Salomatlik hamm uchun" tamoyili asosida maqsadga erishish kaliti sifatida qabul qilingan hujjatlardir.²⁰ Hattoki Amartya Sen(**iqtisodchi, Nobel mukofoti laureati**) – WHONing global sog'lijni saqlashdagi o'rni haqida shunday deydi: "Sog'liq faqat tibbiy xizmat emas, balki iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlik bilan ham bog'liq. WHO davlatlarni teng va adolatli tibbiy xizmat bilan ta'minlash uchun muhim rol o'ynaydi."²¹ Amartya Senning ushbu fikri sog'lijni faqat tibbiyot sohasi bilan cheklab bo'lmasligini, balki iqtisodiy va ijtimoiy omillar ham uning ajralmas qismi ekanini ta'kidlaydi. Ushbu yondashuv sog'lijni saqlash masalalariga tizimli va keng qamrovli yondashish zarurligini ko'rsatadi. Amartya Senning ushbu fikri sog'lijni keng ijtimoiy-

²⁰ Alma-Ata deklaratasiyasi va UHC (Universal Health Coverage)

²¹ Amartya Sen searching via internet

iqtisodiy kontekstda ko‘rish zarurligini ko‘rsatadi. WHO davlatlarni faqat kasallikkarni davolash bilan cheklanmasdan, sog‘liqni iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy barqarorlik bilan bog‘liq holda mustahkamlashga undaydi. Bu esa jamiyatning umumiy farovonligi va inson huquqlarining ta’minlanishi uchun muhim omil hisoblanadi. Davlatlarda sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish va kasallikkarning oldini olish bo‘yicha samarali choralar ko‘rish uchun, avvalo, ekologik muammolarni hal etish zarur. Atrof-muhitning ifloslanishi, havo, suv va tuproq tarkibidagi zararli moddalar inson salomatligiga jiddiy xavf tug‘diradi. Agar davlat ekologik barqarorlikni ta’minlay olsa, bu nafaqat kasallikkarning kamayishiga, balki fuqarolarning umumiy hayot sifatining oshishiga ham xizmat qiladi. Shuningdek, ekologik muhitni yaxshilash bilan sog‘liqni saqlashga ketadigan xarajatlarni ham sezilarli darajada kamaytirish mumkin. Masalan, toza ichimlik suvi va havoning mavjudligi infeksion kasallikkarning oldini olishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bois davlat siyosatida ekologiya va sog‘liqni saqlash o‘zaro bog‘liq sohalar sifatida qaralishi lozim. Shunday qilib, barqaror ekologik siyosat nafaqat tabiiy muhitni asrash, balki millat salomatligini mustahkamlash va kelajak avlodga sog‘lom yashash sharoitlarini yaratish uchun ham asosiy omillardan biri hisoblanadi. Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti (WHO) butun dunyoda yuqumli kasallikkarga qarshi kurashda asosiy xalqaro tashkilotlardan biri hisoblanadi. Uning faoliyati turli pandemiyalar va epidemiyalarni jilovlash, vaksinalarni ishlab chiqish hamda davlatlarga tibbiy yordam ko‘rsatish bilan bog‘liq. Masalan, **COVID-19 pandemiyasi** davrida WHO vaksinalarni ishlab chiqish va taqsimlashda muhim rol o‘ynadi. Tashkilot dunyo davlatlariga kasallik tarqalishining oldini olish, vaksina bilan ta’minlash va pandemiya oqibatlarini yumshatish bo‘yicha texnik va moliyaviy ko‘mak berdi. Shuningdek, **Ebola va Zika viruslariga qarshi kurashda** WHO Afrika va Janubiy Amerikadagi epidemiyasi o‘choqlarida favqulorra choralarini amalga oshirdi. Tashkilot bemorlarni izolyatsiya qilish, vaksinalarni yetkazish va tibbiyot xodimlarini tayyorlash kabi muhim ishlarni olib bordi. Bundan tashqari, **poliomielit va qizamiq kabi kasallikkarni yo‘q qilish bo‘yicha** WHO xalqaro dasturlarni yo‘lga qo‘ygan. Vaksinalar orqali ushbu kasallikkarning tarqalishini kamaytirish va butunlay yo‘q qilish maqsadida turli davlatlar bilan hamkorlik olib bormoqda. Umuman olganda, WHO dunyo bo‘ylab yuqumli kasallikkarga qarshi kurashish, profilaktika choralar ko‘rish va sog‘liqni saqlash tizimini mustahkamlash borasida yetakchi tashkilot sifatida ishlaydi. Uning faoliyati tufayli ko‘plab kasalliklar kamayib, global salomatlik darajasi yaxshilanmoqda. Shu o‘rinda aytish joizki, taniqli epidemiolog va global sog‘liq tadqiqotchisi Paul Farmer WHOning pandemiyalarga qarshi kurashishdagi ahamiyatiga e’tibor qaratadi: “Ebola va COVID-19 pandemiyalari

WHOning ahamiyatini yana bir bor ko'rsatdi. WHOning vaksina taqsimoti va global hamkorlikni rivojlantirishdagi roli insoniyat salomatligi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.”²² COVID-19 pandemiyasida WHO vaksinalarni ishlab chiqish vaadolatli taqsimlash bo'yicha **COVAX dasturini** ishga tushirdi. Ushbu tashabbus dunyo bo'ylab barcha davlatlarni, ayniqsa, iqtisodiy jihatdan zaif mamlakatlarni vaksinalar bilan ta'minlashga qaratilgan edi. Vaksinalarning notekis taqsimlanishi pandemiyaning uzoq davom etishiga sabab bo'lishi mumkinligini hisobga olsak, WHOning bu boradagi roli insoniyat salomatligi uchun juda muhim bo'ldi. Shuningdek, **Ebola epidemiyasi** vaqtida WHO tezkor harakat qilib, xavfli hududlarga tibbiyot xodimlarini yubordi, virus tarqalishining oldini olish uchun profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirdi va kasallik o'choqlarini bartaraf etishda yetakchi tashkilot sifatida faoliyat olib bordi. Ushbu pandemiyalar WHOning global hamkorlikni rivojlantirishdagi o'rnini ham yaqqol namoyish etdi. Tashkilot davlatlar o'rtasida axborot almashinuvi va sog'liqni saqlash tizimini mustahkamlashga xizmat qiluvchi dasturlarni ilgari surdi. Ayniqsa, pandemiyalar vaqtida ilmiy tadqiqotlar, vaksina ishlab chiqish va tibbiy yordamni kengaytirish bo'yicha xalqaro hamkorlik WHOning asosiy vazifalaridan biri bo'ldi. Umumiy qilib aytganda, WHO insoniyat salomatligini saqlashda beqiyos rol o'ynaydi. Uning pandemiyalarga qarshi kurash, vaksinalar taqsimoti va global hamkorlikni rivojlantirish borasidagi sa'y-harakatlari kelajakdagi sog'liq inqirozlariga tayyorgarlik ko'rish uchun juda muhimdir.

Inson huquqlarini ta'minlash bo'yicha xalqaro sudda ko'rilgan ishni tahlilini ko'rib chiqsak, Miranda Arizona ishi AQSh Oliy sudi tomonidan 1966-yilda ko'rib chiqilgan bo'lib, u hibsga olingan shaxslarning huquqlari bo'yicha muhim huquqiy pretsedent yaratgan. Ushbu ish Ernesto Miranda ismli shaxsnинг ishi bilan bog'liq bo'lib, u Arizonada jinoyat sodir etganlikda ayblangan va politsiya tomonidan so'roq qilingan. Politsiya unga uning huquqlari, xususan, sukut saqlash huquqi va advokat yollash huquqi haqida ogohlantirmagan. Natijada, Miranda o'ziga qarshi dalillarni tan olgan va shu asosda sudlangan. Mirandaning advokatlari esa bu e'tiroflar huquqiy jihatdan noto'g'ri olinganligini ta'kidlab, ishni Oliy sudga olib chiqdi. Oliy sud Miranda foydasiga qaror chiqardi va quyidagilarni belgilab berdi:

- Hibsga olingan shaxslar o'z huquqlari haqida bilishi shart** – Politsiya shaxsni so'roq qilishdan oldin unga uning asosiy huquqlarini tushuntirishga majbur.
- Sukut saqlash huquqi** – Shaxs o'ziga qarshi ko'rsatma bermaslik huquqiga ega.

²² World helath organization <https://www.who.int/> information

3. Advokat bilan ta'minlanish huquqi – Agar shaxs advokatga ega bo'lishni istasa, unga advokat berilishi lozim.

Agar bu huquqlar ta'minlanmasa, olingan ko'rsatmalar sudda ishlatilmaydi – Ya'ni, politsiya tomonidan ogohlantirilmagan holda berilgan ko'rsatmalar noqonuniy hisoblanadi. Miranda ishi AQSh Konstitutsiyasining 5-va 6-tuzatishlariga asoslanadi. Bu qaror AQShda va boshqa davlatlarda jinoiy jarayonlarning adolatli o'tishini ta'minlash uchun muhim huquqiy kafolat yaratdi. Bugungi kunda ham AQShda hibsga olish jarayonida politsiya shaxsga "Miranda ogohlantirishi"ni o'qib berishi shart. Masalan: "Siz sukut saqlash huquqiga egasiz. Aytigan har qanday so'zlarizing sudda sizga qarshi ishlatilishi mumkin. Siz advokat chaqirish huquqiga egasiz. Agar advokatga pulingiz yetmasa, davlat sizga uni ta'minlab beradi." Bu qaror inson huquqlarini himoya qilish yo'lidagi muhim qadamlardan biri sifatida ko'rildi. Shu bilan birga, ayrim huquqshunoslar bu qarorning jinoyatchilarga ortiqcha himoya berishi mumkinligini ta'kidlaydilar. Masalan, ba'zi jinoyatchilar aynan shu huquqlardan foydalanib, politsiyaning dalil to'plash jarayonini qiyinlashtirishi mumkin. Biroq, umumiy ma'noda, bu qaror fuqarolarning o'z huquqlarini bilishiga va adolatli sud jarayonlarini ta'minlashga xizmat qiladi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Miranda Arizona ishi inson huquqlarini himoya qilish yo'lidagi eng muhim sud qarorlaridan biri bo'lib, bugungi kungacha global huquqiy tizimlarga ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Bu qaror hibsga olingan shaxslarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan bo'lib, adolatli sud jarayonlari tamoyillarini mustahkamladi.

Xulosa: BMTning turli fond va dasturlari inson huquqlarini himoya qilish, targ'ib etish va ularning amalga oshirilishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. **UNICEF, UNDP, WHO va UNESCO** kabi tashkilotlar orqali BMT ta'lim, sog'liqni saqlash, gender tengligi, adolat va ijtimoiy barqarorlik yo'nalishlarida global miqyosda ijobiy o'zgarishlarga erishmoqda. Xususan, xalqaro huquqiy normalarni shakllantirish, moliyaviy va texnik yordam ko'rsatish, inson huquqlari bo'yicha ta'lim dasturlarini ilgari surish hamda xalqaro monitoring tizimini yaratish orqali bu fondlar dunyo miqyosida inson huquqlari bo'yicha barqaror taraqqiyotga hissa qo'shamoqda. Biroq, hali ham dunyoning ayrim hududlarida inson huquqlari jiddiy buzilmoqda. Qashshoqlik, gender tengsizlik, bolalar mehnati, ijtimoiy adolatsizlik va majburiy mehnat kabi muammolar BMT va uning fondlari tomonidan hal qilinishi lozim bo'lgan dolzarb masalalar bo'lib qolmoqda. Shuningdek, xalqaro hamkorlikning yetishmovchiligi, davlatlarning o'z zimmasidagi majburiyatlarini to'liq bajarmasligi va ba'zi huquqiy mexanizmlarning yetarlicha samarali ishlamasligi mavjud muammolarni yanada chuqurlashtirishi mumkin. BMT fond va dasturlarining inson huquqlarini ta'minlash

borasidagi faoliyatini yanada samarali qilish uchun BMT inson huquqlarining buzilishi bo'yicha mustaqil xalqaro kuzatuv tizimlarini kengaytirishi va har bir davlatda inson huquqlariga oid hisobotlarni yanada shaffof va aniq yuritishi, inson huquqlarini buzgan davlatlarga nisbatan qat'iyroq chora-tadbirlar ko'riliishi, shu jumladan sanksiyalar yoki xalqaro sndlarda javobgarlikka tortish mexanizmlarini kuchaytirish orqaligini barqarorlikga erishish mumkin deb hisoblayman. Xalqaro huquq bo'yicha taniqli olim Antonio Cassese o'zining "International Law" asarida davlatlarning inson huquqlarini buzishi xalqaro hamjamiyat tomonidan qat'iy chorallarga sabab bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi.²³ Inson huquqlarining buzilishini oldini olish uchun davlatlarga nisbatan qo'llaniladigan jazo choralar samarali va qat'iy bo'lishi zarur. Agar jazolar yetarlicha ta'sirchan va ogohlantiruvchi bo'lmasa, huquqbuzarliklar yana takrorlanishi ehtimoli yuqori bo'ladi. Shu sababli, xalqaro hamjamiyat inson huquqlarini buzgan davlatlarga nisbatan sanksiyalar, iqtisodiy cheklovlar, xalqaro sndlarda javobgarlikka tortish kabi aniq va ta'sirchan mexanizmlarni ishlab chiqishi lozim. Faqat shu yo'l bilan davatlarning javobgarligini kuchaytirish va kelgusida bunday holatlarning oldini olish mumkin.

Foydalilanigan huquqiy hujjatlar:

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948)
2. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (1966)
3. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (1966)
4. Bola huquqlari to'g'risidagi konventsiya (1989)
5. Xalqaro jinoyat sudi (ICC) Statuti – Rim Statuti (1998)
6. Qiynoqlarga qarshi konventsiya (1984)
7. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nizomi (1945)
8. Xalqaro Mehnat Tashkilotining 182-konvensiyasi
9. Yevropa Inson huquqlari konventsiyasi (1950)
10. Miranda v. Arizona (1966) – AQSh Oliy sudi qarori

²³ Antonio Cassese "international law" book